

## QORAQALPOG'ISTONDA KOLLEKTIVLASHTIRISH SIYOSATINING OLIB BORILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12566817>

**Mavluda Kidirbaeva**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

*O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixi kafedrasи*

*tayanch doktoranti*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Qoraqalpoq ASSR industriallashtirish va jamolashtirish davridagi voqealar so'z etiladi.*

### **Аннотация**

*В этой статье вы можете узнать изменения Каракалпакстан АССР в период индустриализации и коллективизации.*

### **Annotation**

*This article deals with the events of the period of industrialization and collectivization of the Karakalpak ASSR.*

### **Kalit so'zlari**

*mashina traktor stantsiyalari, xususiy mulk, mulk daxlsizligi, jamoatlik rivojlanish*

### **Ключевые слова**

*автомоторные станции, частная собственность, неприкосновенность собственности, общественная застройка*

### **Keywords**

*car tractor stations, private property, property inviolability, public development*

Sovetlar hokimiyatining qishloq xo'jaligini jamoalashtirishga qaratilgan siyosati o'tgan asrning 20 -30 -yillarida amalga oshirish yo'naliishlari hukumat farmoyishlarining zo'rlik siyosatining yorqin ko'rinishi qishloqda o'tkazilgan jamoalashtirish jarayonida körindi. Necha asrlar davomida individual xo'jaliklarni yuritib kelgan, shu o'rinda ma'naviyatida xususiy mulklik hissi kuchli bo'lgan, mulk daxlsizligi tushunchasini muqaddas deb bilgan millionlab dehqon oilalarni ularning xohishi istagiga e'tibpr ham qilmasdan qa'tiy majburiy turda yirik jamoa xo'jaliklariga aylantirish bu hazillashib bo'lmaydigan oson hal qilinadigan ish emas edi. Sovet hukumati, hukmron partiyasi jamoatlik rivojlanish jarayonida, uning ta'bii qonuniyatlariga zid holda bu jarayonni qisqa muddatlar ichida zo'rlik va majburiylik yo'li bilan o'tkazishga o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. VKP (b) XV

siezdi (1927-yil dekabr) belgilab bergen qishloqlarda ommaviy jamoalashtirishni amalga oshirish siyosati bunga to'liq asos qilib olindi.

Butun SSSR hududida bo'lgani kabi O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda ham bu ish faol turda amalga oshirildi. Nima bo'lganda ham, hukumat tomonidan belgilangan har qanday buyruq farmon va yo'l ko'rsatgishlar bu yerda ham so'zsiz ijro etilishi, hayotga tatbiq qilinishi majburiy edi. Buning uchun tegishli shart-sharoitlar va imkoniyatlar bormi, yoki yo'qmi, maxalliy xalqning bu chora-ta'dbirlar ijro etilishini hazm qilishi qanday darajada bo'lishi e'tiborga ham olinmadni. Maxalliy hududlarning o'ziga xos, milliy tomonlari, hayoti, shakl-u-tamoyillari ham inobatga olinmadni.

20-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti davrida boy dehqonlaring yerlari, vaqf yerlari, ruhoniylarga tegishli yerlar davlat tomonidan tortib olingan edi. Yer-suv islohoti bo'yicha hamma ot-arava va asbob-uskunalar ham tortib olindi., Umuman 1925-1929-yillar ichida boylar, yirik savdogarlar va ruhoniylarning 45 mingga yaqin xo'jaliklari to'ligi bilan jamoatlashtirildi. Ko'plab xonadonlar qaramog'idagi ortiqcha yerlar ham tortib olingan edilar. Bu yerlar takroriy taqsimlanib, ularning bitta bo'lagi yersiz yoki oz yerga ega dehqon xo'jaliklarga shaxsiy mulk qilib berildi. Buning sababidan batrak-kámbaǵallar islohotdan oldin barcha dehqonlarning 76 foizini tashkil qilgan bo'lsa, islohotdan so'ng ularning soni 39 foizga qisqardi. Ularning xo'jalik hayoti yaxshilanib, yuksalib borganligi sababli o'rtacha dehqonlar ko'rsatgichi 17 foizdan 52 foizga ko'tarildi. Qishloqlarda tovar bug'doy yetishtiradigan mayda ishlab shiqaruvchilarning soni ortib bordi. Bu islohot jarayoni davomida respublikada jamoa xo'jaliklari, ya'ni kolxozlar tashkillashtirildi. Biroq ularning hali moliyaviy zaifligi, hosil olish ko'rsatkichlarining past ekanligida ko'zga tashlanib turardi.

Sovet hukumatining 20 -yillarda qishloqda olib borgan bir qancha o'rtacha siyosatidan foydalanib, yer -suv islohotidan foydalanib qolgan birqator xo'jaliklar esa o'zlarining xo'jaliklarini biroz tiklab olib yashash tarzi yaxshilangan xo'jaliklar tez orada keng qamrovli jamoalashtirish jarayoniga g'arq bo'ldi.

Qishloqlarda ommaviy jamoalashtirish siyosatini ketma-ket amalga oshirish uchun O'zbekistondagi partiya, sovet, xo'jaliklar, yoshlar, xotin-qizlar va boshqa jamoat tashkilotlari jalb etildi. Markaz buyruǵi va topshiriqlarini, ko'rsatmalarini so'zsiz ijro etishni yuqori ma'suliyat deb bilgan, unga befarqlik pozitsiyasida bo'lgan mahalliy boshliqlar fermerlarni darhol kolxozlarga majburiy kiritish ishlari 1929-yilning ikkinchi yarimi va 1930-yil boshlarinda avj olib ketdi. Maslan, O'zbekiston partiyasi va hukumatining 1930-yil 17-fevraldag'i «Jamoalashtirish va kulak xo'jaliklarini tugatish haqida» gi qarorida respublikaning 17 tumaninda

ommaviy jamoalashtorishni amalga oshirish vazifasi belgilangan edi. Ko'p o'rnlarda kulaklarni tugatish siyosati bilan o'rtacha, hattoki kámbagal dehqon xo'jaliklariga zulumlik o'tkazildi. 1929-yilning oktyabriga qadar respublikadagi dehqon xo'jaliklarining 3, 4 foizi kolxozlarga kirdi, 1930 -yilning mart oyiga kelib dehqon xo'jaliklarining 47 foizi jamoalshtirilgan edi.

Ko'plab o'rnlarda aholi jamoalashtirish xavfidan qo'rqib o'zining chorva mollarini keragidan ortiq so'yib tashlashdi. Bu esa chorvachilik sohasiga putur etkazdi. Masalan, birgina qoramollar bosh soni 1930-yilda respublika bo'yicha 60 mingga kamayib ketdi. Jamoalashtirish ishidagi shoshilinchlik joylarda haqiyqiy shart-sharoitlar bilan hisoblashmaslik, milliy hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini, aholisining milliy dasturlarini, urf odatlarini hisobga olmaslik, ularni mensinmaslik oxir oqibatda bundan ham yomon salbiy holatlarning yuz berishiga sabab bo'ldi. Ko'plab qishloq tumanlarda hokimiyat organlarining zo'rlik siyosati, o'z bilarmonligiga qarshi aholi keskin norozilik bildirib, har xil harakatlar uyuştirishga majbur bo'ldi. 1929-1930-yillarda dehqonlarning sovet davlatiga qarata keng qamrovli norozilik harakatlariga Qashqadaryo okrugidan 14 ming odam qatnashgan. Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, bunday keng qamrovli norozilik harakatlari o'sha davrda respublika bo'yisha 240 marta bo'lib o'tgan. Eng achinarlisi, ko'plab kamtarin dehqon xo'jaliklar arzimagan sabablar bilan yoki birgina jamoa xo'jaligiga kirishga tilak bildirmaganligi uchun bor mol-mulki, uybinosi, chorvalari tortib olinib, kulak qilinuvchilar ro'yxatiga qo'shib yuborishgan.

Sovet hokimiyati, uning tegishli ma'sul organlari, mahalliy partiya, sovet va xo'jalik tashkilotlari butun chora-tadbirlar bilan qishloqda jamoalashtirish siyosatini talabchanlik bilan o'tkazishni davom etdi. Hatto partiya Markazkomning 1930-yil 5-yanvardagi qaroriga yarasha O'zbekstanda dehqon xo'jaliklarin ommaviy jamoalashtirish ishlarini 1933-yilning boshlariga qadar tugatish muddati belgilangan bo'lsa ham, maxalliy rahbarlar muddatridan oldin ijro etmoqlik uchun faol ish olib bordi. Buni quyidagi raqamlardan ham yaqqol ko'rsa bo'ladi. 1930-yil iyunida respublikada 6124 kolxoz tuzilgan, ularga kiritilgan dehqon xo'jalilarning 27, 1 foizini tashkil qilgan bo'lsa, o'sha ko'rsatgich yilning oxiriga kelib 37 foizga, 1931-yil dekabrida esa 68, 2 foizga yetdi. Shuning bilan bitta vaqtning o'zida dehqon xo'jaliklarini majburiy kulak etish, boshqa yerlarga surgun etish ishlari avj oldirildi. Kulaklashtirish oqibatida O'zbekistonnan Ukraina, Sibir va Shimoliy Kavkazga 60 mingnan ziyod odam surgun qilindi. Ma'muriylik bosim oshkora zo'rlik, iqtisodiy terror usullari va shu kabi ta'sir choralarining uzluksiz qo'llanilishi bilan kolxoz qurilishi sezilarli sura'tda rivojlandirib borildi. 1932-yil oxiriga kelib umuman O'zbekistonda jamoalashtirilgan xonadonlar barcha

dehqon xo'jaliklarining 81,7 foizini birlashtirgan edilar. 800 ming dehqon xo'jaliklaridan vaholanki 9734 kolxozi va 94 sovxozi tuzildi. Bu davrga kelib paxtachilik tumanlarida jamoalashtirish asosan tugallangan, ularning ekinzorlik maydonlari 1929-yildagi 1530 ming getkardan 1932-jilga kelib 928 ming getkarga ko'paygan edilar. Shunday qilib, «SSSR ning paxta mustaqilligini ta'minlashda Qoraqalpog'iston o'zining sezilarli hissasini qo'shdi. Masalan, 1935-yilda 1 mln. tonna paxta tayyorlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1939-yilda 1,5 mln. tonnani, 1941-yilga kelib bo'lsa 1656200 tonnani quradi. Bu SSSR bo'yicha tayyorlangan paxtaning 60 foizidan ortig'ini tashkil qilgan edi. 30 -yillar davomida respublika qishloq xo'jaligi tizimida paxta hukmdorligi mustahkam o'rinnegallab bordi. Shuning ichida, agar 1933-yilda paxta mahsulotlari respublikada, yetishtirilib taylorlab beriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmining 81,5 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1937-yilga kelib bu ko'rsatgich 93,4 foizga yetdi. Bu yillarda qishloqni jamoalashtirish jarayoni ham o'zining yakunlanish bosqichiga kirib bordi. Sababi, 1937-yilda dehqon xo'jaliklarining jamoalashtirish saviyasi 95 foizga yetgan bo'lsa, 1939-yilda 99,2 foizni tashkil qildi. Ommaviy jamoalashtirish jarayonida O'zbekiston bo'yicha 60 mingdan ortiq odam kulaklarga daxldorlikda ayblanib qatag'onga uchradilar. «Kulaklarni, sinf sifatida tugatish » masalasi uzilkesil yechimini topdi. O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarini ommaviy turda jamoalashtirish ishlari, shuning bilan yangi xo'jaliklarga moddiy-texnik baza bo'lib xizmat qiladigan mashina-traktor stantsiyasini (MTS) tashkil qilish ishlari birga olib borildi. 1937-yilda ularning soni 163 ga, 1941-yilga kelib esa 189 ga yetdi. Hatto yirik jamoa yerlarini ishlab berish, qo'l mehnatini osonlashtirish, qishloqlarga texnika olib kelish, texnika ilm-fanidan qishloq mehnatkashlarini voqif etish, ko'nikmalarini orttirishda MTS lar muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa ham, biroq bu narsa jamoa xo'jaliklarining davlatga qaramligini yanada orttirdi. Buning sababi shundaki, yirik ishlab chiqarish vositalari MTSlar borgan sari davlat qo'l ostida to'planib borishi, MTS lar jamoaviy yerlarni natural haqi barobariga ishlab bergen, bu haqning miqdori yuqori davlat organlari tomonidan belgilangan. MTSlarning paydo bo'lishi va xizmat ko'rsata boshlashi bilan qishloqlarda shartli ravishda bo'lsa ham, «ikki xo'jayin»- kolxozlar va MTS lar tashkil etildi. Hatto har ikkisining asosiy jilovi davlat qo'lida bo'lsa ham, biroq ularning bittasi texnika uchun, ikkinchisi esa qishloq xo'jaligi sohasi va qolgan boshqa ishlar uchun ma'sul hisoblangan edi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Aminova R.X. Osuhestvlenie kollektivizatsii v Uzbekistane (1929-1932 gg.) T., «Fan», 1977
2. Aminova R.X. Kollektivizatsiya v Uzbekistane; kak eto bilo? - «Kommunist Uzbekistana» 1989, № 9
3. Aminova R.X. Kollektivlashtirish qashshoqlashtirish demak. - «SHarq yulduzi», 1992, № 12
4. История Каракалпакской АССР. Т.2. с. 238
5. История народного хозяйства Узбекистана т.1. Т., изд. АН УзССР, 1962